

CHIZMACHILIK FANIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Toshkent shaxar Mirzo Ulug'bek tumani

64-maktab tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Xodjimuhamedova Farida Maxmudovna

Annotatsiya: Maqolada chizmalarni chizish va ularni turli usullar bilan o'qish hamda ularga didaktiv yondashish, o'quvchilarning chizmachilikdan olayotgan bilim, ko'nikmalarini tekshirish, dars jarayonida ularning faolligini oshirish maqsadida o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish uslublari bo'yicha tavsiyalar berilgan.


Kalit so'zlar: texnologiya, chizmachilik, makon, fazo, shakl, konstruktsiya, tatbiq etish, uzluksizlik, samaradorlik, evristik o'qitish texnologiyasi.

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib, o'rganib tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. An'anaviy darsni saqlab qolgan holda uni o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-xil metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Interfaol («Inter» - bu uzaro, «act» - xarakat qilmoq) – o'zaro xarakat qilmoq yoki kim bilandir suxbat, muloqot tartibida bulishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi [1-6]. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchilarning bilim, ko'nikma,

malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. O‘quvchilarni chizmalarni o‘qishga o‘rgatishni tezlashtirish uchun quyida, didaktikali innovatsion pedagogik texnologiyalar taklif etiladi. Ushbu taklif etilayotgan interfaol metodlar bir mavzudan ikkinchi mavzuga, bitta grafik tushunchani ikkinchisiga o‘tishni ta‘minlaydi. Mavzularni osonroq va chuqurroq egallashga yordam beradi hamda o‘quvchilarni dars jarayonini diqqat bilan kuzatishga undaydi. Bunda o‘quvchilarning psixik o‘zgarishlariga mos turli innovatsion didaktik metodlarni qo‘llab, ko‘zlangan natijalarga erishish mumkin. Fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. 1 – misol.

Kim tez o‘qiydi va chiza oladi. O‘yinning sharti. Detalning bitta ko‘rinishi orqali qolgan ko‘rinishlarini shartli belgilar yordamida o‘qish va chizish. *Maqsad.* O‘quvchilarga chizmachilikda qo‘llanadigan shartli belgilar orqali detalning shaklini tasavvur qilishni o‘rgatish va ularning chizmalarini o‘qish kompetentlikni rivojlantirish.

O‘yinning tafsiloti. O‘qituvchi tarqatma materiallarni o‘quvchilarga bittadan berib chiqqandan keyin, detalning bitta ko‘rinishi tasvirlangan chizmani ko‘rsatib, “Uning ustidan ko‘rinishini shartli belgilar yordamida chizasizlar” deb ta‘kidlaydi, ya‘ni ko‘rsatma beradi. Agar o‘quvchilar masala shartini bajarishda qiynalishsalar, o‘qituvchi oldindan chizib qo‘yilgan 1.1 – chizmadagi misolni sinf doskasiga olib qo‘yadi va bir oz o‘tgandan keyin uni olib qo‘yadi.



1.1- chizma

Eslatma. O‘yinni plakat-chizma orqali o‘tkazsa ham bo‘ladi. Buning uchun plakat-chizmada tarqatma materiallardagi bitta ko‘rinishdagi chizmalar kattalashtirib

bajariladi hamda ularga mos keladigan ustdan ko‘rinishlari chizilgan ko‘rinishlar bajarilib, aralashtirib qo‘yiladi. O‘quvchilardan birini taklif qilib aralashtirib qo‘yilgan chizmalar ichidan tanlangan detalning ustdan ko‘rinishini topish so‘raladi. O‘yin shu tartibda davom ettiriladi.

O‘yin shartini tez bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va yo‘l qo‘yilgan xatolar haqida va uni bartaraf etish yo‘llarini aytadi.

Interfaol metodlar tashkil etilgan dars jarayonida quyidagi ijobiy holatlar vujudga keladi:

- xotira va diqqatning uzviy aloqadorligi oshadi;
- o‘quvchining o‘quv materiallariga va chizmachilik faniga qiziqishi ortadi;
- o‘quvchi bilan o‘qituvchi orasida muloqot tezlashadi;
- o‘quvchilarning o‘zaro xarakati tezlashadi;

O‘qituvchi o‘quvchilarning psixologiyasiga aynan interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkillashtirsa, har bir darsida ko‘zlagan maqsadiga erishishi mumkin. Bordiyu bu ishga loqaydlik bilan qarab mashqlarni sust va zavqsiz o‘tkazsa, o‘quvchilarning qiziqishi yo‘qoladi. Interfaol metodlar qo‘llanilishidan maqsad shundaki, bunda o‘quvchilarning o‘tilgan mavzularni oson o‘zlashtiradi va ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov va A.Valiyev. Chizmachilik (chizmachilik fanida konstruksiya- lash asoslari). T. “Voriz-nashriyot”. 2011.

2. N.X.Gulomova, D.A.Yuldasheva Chizmachilik (umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun metodik qo‘llanma) –T.: “Zuxra baraka biznes” 2017.

3. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.

1. Хакимов, С. (2023). ПОВТОРНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДЫ В АВТОМОЙКАХ ПУТИ МАРШРУТИЗАЦИИ. *ТЕСНика*, (1 (10)), 1-5.

2. Хакимов, С., & Тургунбаева, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА ЯПОНИИ, США И ГЕРМАНИИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *ТЕСНика*, (2 (11)), 17-19.

3. Кодирова, Ф., Хакимов, С., & Турғунбаева, М. (2023). ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВРЕМЕННЫМ ТЕПЛОИЗОЛЯЦИОННЫМ СТРОИТЕЛЬНЫМ МАТЕРИАЛАМ. *ТЕСНика*, (2 (11)), 5-9.

4. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.

5. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.

6. Hakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.

7. Yuldashev, S., & Hakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. *Science and innovation*, 1(A5), 376-379

8. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.

9. Хакимов, С., Шаропов, Б., & Абдуназаров, А. (2022). БИНО ВА ИНШОТЛАРНИНГ СЕЙСМИК МУСТАҲКАМЛИГИ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР (РОССИЯ, ЯПОНИЯ, ХИТОЙ, АҚШ) МЕЪЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 806-809.

10. Rasuljon o'g'li, K. S., & Muhammadjanovna, K. F. (2023). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING STEEL REINFORCEMENTS AND COMPOSITE REINFORCEMENTS IN BUILDING STRUCTURES. *AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR*, 2(6), 1-5.

11. Хамидов, А., Хакимов, С., & Турғунбаева, М. (2023). СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ НА ОСНОВЕ ЗОЛО-ШЛАКОВЫХ ЩЕЛОЧКОВ. *ТЕСНика*, (2 (11)), 1-4.

12. Хакимов, С., & Фаррух, Д. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЕЙСМОСТОЙКОСТИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ. *ТЕСНика*, (2 (11)), 10-13.